



**O‘ZBEKISTONNING MINTAQAVIY SUV RESURLARINI
BOSHQARISHDAGI IQTISODIY MANFAATLARI**

Abduraxmonov Shohruh Sherzod o‘g‘li

Alfraganus universiteti

*Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy
munosabatlar yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Xalmatjanov Farxod Maxammatjanovich

Alfraganus universiteti

Iqtisodiyot fakulteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining mintaqaviy suv resurslarini boshqarishdagi o‘rni va iqtisodiy manfaatlari atroflicha tahlil qilingan. Mamlakatning geoiqtisodiy joylashuvi, Amudaryo va Sirdaryo havzalariga bog‘liqligi hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida suv resurslarini taqsimlash, hamkorlikni kuchaytirish va barqaror rivojlanishni ta‘minlashda O‘zbekistonning strategik manfaatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Suv resurslari, iqtisodiy manfaat, O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, Amudaryo, Sirdaryo, mintaqaviy hamkorlik, ekologiya, irrigatsiya, qishloq xo‘jaligi.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the role and economic interests of the Republic of Uzbekistan in managing regional water resources. It highlights the country’s geo-economic location, its dependence on the Amu Darya and Syr Darya basins, as well as the issues of rational use of water resources. In addition, Uzbekistan’s strategic interests in the distribution of water resources among Central Asian countries, strengthening cooperation, and ensuring sustainable development are substantiated.

Keywords: Water resources, economic interest, Uzbekistan, Central Asia, Amu Darya, Syr Darya, regional cooperation, ecology, irrigation, agriculture.



Аннотация: В данной статье всесторонне проанализированы роль и экономические интересы Республики Узбекистан в управлении региональными водными ресурсами. Освещаются геоэкономическое положение страны, её зависимость от бассейнов Амударьи и Сырдарьи, а также вопросы рационального использования водных ресурсов. Кроме того, обоснованы стратегические интересы Узбекистана в распределении водных ресурсов между странами Центральной Азии, укреплении сотрудничества и обеспечении устойчивого развития.

Ключевые слова: Водные ресурсы, экономический интерес, Узбекистан, Центральная Азия, Амударья, Сырдарья, региональное сотрудничество, экология, ирригация, сельское хозяйство.

Kirish: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslariga eng ko‘p ehtiyoj sezuvchi davlatlardan biri hisoblanadi. Chunki mamlakatning agrar sektori va butun iqtisodiy rivojlanishining barqarorligi suv bilan chambarchas bog‘liq. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, suv resurslari nafaqat ekologik, balki siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot ko‘p jihatdan suv resurslarini oqilona boshqarishga bog‘liqdir” – deb ta’kidlagan.

Bugungi kunda suv resurslari masalasi O‘zbekiston uchun nafaqat ichki iqtisodiyot, balki mintaqaviy integratsiya, xalqaro hamkorlik va xavfsizlikning asosiy tarkibiy qismiga aylanmoqda. Shuning uchun mazkur mavzuni chuqur o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir.

Asosiy qism: O‘zbekistonning suv resurslari asosan Amudaryo va Sirdaryo havzalaridan shakllanadi. Bu daryolar mamlakat hududiga boshqa davlatlardan oqib kelgani bois, suv taqsimoti masalasi har doim Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida strategik muammo bo‘lib kelgan. O‘zbekistonning iqtisodiy manfaatlari, avvalo, ushbu suv resurslarini adolatli taqsimlash va oqilona boshqarishga asoslanadi.



Chunki mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligi to'liq dehqonchilik sug'orish tizimiga bog'liq. Xususan, paxtachilik, g'allachilik, sabzavot-polizchilik kabi sohalarda suv resurslari yetarli bo'lmasa, milliy iqtisodiyot sezilarli zarar ko'radi. Mintaqaviy suv resurslarini boshqarishda O'zbekistonning manfaatlari bir nechta asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, iqtisodiy manfaatlar, ya'ni suv resurslari orqali qishloq xo'jaligida yuqori hosildorlik ta'minlanadi, oziq-ovqat xavfsizligi mustahkamlanadi va eksport salohiyati oshadi. Ikkinchidan, energetik manfaatlar, yuqori oqimli davlatlarda, masalan, Qirg'iziston va Tojikistonda gidroenergetika rivojlangan. Bu esa suvni saqlash va chiqarish rejimiga ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston uchun esa daryolarning tabiiy oqimini saqlash muhimdir, chunki sug'oriladigan yerlarda suv yetishmasligi bu katta iqtisodiy yo'qotishlarga olib kelishi tabiiy hol. Uchinchidan, ekologik manfaatlar, sovet davrida amalga oshirilgan noto'g'ri suv siyosati oqibatida Orol dengizi qurib bormoqda. Bu nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqardi. O'zbekiston suv resurslarini boshqarishda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, Orolbo'yi mintaqasini tiklash hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishni o'zining ustuvor vazifasi qilib olgan.¹

Mintaqaviy hamkorlik masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston mustaqillik yillaridan boshlab suv resurslarini birgalikda boshqarish tarafdori bo'lib kelmoqda. Ammo 2016 yildan keyin bu siyosat yanada faollashdi. Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari tufayli qo'shni davlatlar bilan konstruktiv muloqot yo'lga qo'yildi, O'zbekiston va Qirg'iziston, shuningdek, O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida suv-energetika sohasida hamkorlik kuchaytirildi. Bu nafaqat iqtisodiy manfaatlarni, balki mintaqada barqarorlikni ham ta'minlashga xizmat qilmoqda.²

Bundan tashqari, suv resurslarini boshqarishda xalqaro tashkilotlarning roli ham katta. O'zbekiston BMT, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi institutlar bilan hamkorlik qilib, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etmoqda. Misol uchun, tomchilatib sug'orish tizimlari kengaymoqda, bu esa suv sarfini kamaytirib,

¹ Orolbo'yi mintaqasi ekologik muammolari bo'yicha BMT hisobotlari, 2020.


² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev nutqlari to'plami, 2017–2022.

hosildorlikni oshiradi. Bunday yondashuv mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli daromad keltirish bilan birga ekologik barqarorlikni ham ta'minlaydi. Umuman olganda, suv resurslarini boshqarishdagi O'zbekistonning iqtisodiy manfaatlari keng ko'lamli va uzoq muddatli istiqbollarga ega. Bu jarayonda mamlakat faqat o'z manfaatlarini emas, balki butun mintaqaviy barqarorlikni ham hisobga olmoqda.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, suv resurslarini boshqarish masalasi O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega. U nafaqat milliy iqtisodiyotning asosiy omili, balki mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikning kafolatidir. O'zbekistonning manfaatlari qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, energetika balansini saqlash, ekologik muammolarni hal qilish va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, mamlakat suv resurslarini boshqarishda quyidagi takliflarni ilgari surmoqda:



Suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish;



Qo'shni davlatlar bilan suv-energetika masalalarida kelishuvlarni mustahkamlash;



Orolbo'yi ekologik muammolarini xalqaro darajada hal qilish;



Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda suv infratuzilmasini modernizatsiya qilish.

Shunday qilib, O'zbekistonning suv resurslarini boshqarishdagi iqtisodiy manfaatlari nafaqat bugungi ehtiyojlarni, balki kelajak avlodlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ham muhimdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Orolbo'yi mintaqasi ekologik muammolari bo'yicha BMT hisobotlari, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev nutqlari to'plami, 2017–2022.